



Taqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | CONFÉRENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMIY KONFERENSIYA


YANG O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCE.UZ

DAVRIYLIGI: 2018-2023

INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

DUNYODA BIRINCHI KASHF
ETILGAN LOKOMOTIV POYEZD



TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.

+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



IYUL
№54

OZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJUY OLIV TAJIM MUASSASALARI PROFESSOR-QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IOTTODORLI TALABALAR

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
7-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-7**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-7**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 54-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 июль 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 8 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажида Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содикович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содикович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

1. Marhabo Ahmedova

OGAHIYNING “RIYOZU-D-DAVLA” ASARIDA NASLIY BOG‘LANISHNI ANGLATUVCHI BIRLIKALAR	7
---	---



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАД҆ҚИҚОТЛАР

OGAHIYNING “RIYOZU-D-DAVLA” ASARIDA NASLIY BOG’LANISHNI ANGLATUVCHI BIRLIKLAR

Marhabo Ahmedova,

Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
marhabo.ahmedova18@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ogahiyning “Riyozu-d-davla” asarida nasliy bog’lanishni anglatuvchi birliklar, asardagi ba’zi eponimlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: eponim, kunya indikatorlari, patronim, matronim, genonim, antroponomik ko‘lam.

Muayyan mumtoz asar yuzasidan olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlarida obyekt manbaning qayd etilgan jihatlarini qamrab olinishi ham muhim hisoblanadi. Tadqiqotimiz mobaynida asardagi ayrim nasliy bog’lanishni anglatuvchi birliklar va eponimlarni tahlil qildik. Quyida ularning ayrimlariga to‘xtalamiz.

Kuniya – (arab. kunya) kana (chaqirmoq, laqab qo‘ymoq) fe’lidan kelib chiqqan bo‘lib, Abu (ota) yoki Umm (ona) so‘zлari old qo‘shimchali taxallus ma’nosini bildiradi. Shariat terminologiyasida kunya – Abu (ota), Umm (ona), ibn (o‘g‘il) yoki bint (qizi) prefaksi bilan hurmat va ehtirom uchun ishlatiladigan ism. Abu Hurayra (Mushukchaning otasi) yoki Abu Turob (yerning otasi, tuproq) kabi odam bo‘lmagan ismlar bilan ruhsat etilgan. Erkak va ayoldan bo‘lgan hurmatli va munosib kishilarga farzand ko‘rmagan bo‘lsa ham kunya berish maqsadga muvofiq (sunnat). Va kofirlar, gunohkorlar va bid’atchilarga nisbatan (ta’qiqlangan), chunki ular hurmatga loyiq emas¹. Asar o‘zbeklar orasida kuniya qo‘llash urfdan qolgan davr voqealarini yoritgani uchun unda bu tip onomalar uncha ko‘p uchramaydi. Borlari ham arab millatiga mansub sahobalar nomlari tarkibida kuzatiladi. Masalan, “...Ali ibn Abu Tolib raziallohu anhu...” (RD, 323b). Abu Hurayra kabi misollar orqali ko‘ramizki, kuniya indikatorlari hamisha kimningdir otasi yoki onasi ekanini emas, balki biror sohada mohirlik, mashhurlikni ham anglatadi. Masalan, mo‘ylovodr odam ma’nosida abulshavorib (aynan: mo‘ylov otasi) deyish. RDdagagi xonlarga nisbatan abulmuzaffar (g‘olibning otasi), abulg‘oziy sifatlarining berilishida ham xuddi shunday holatni ko‘ramiz: “...abu-l-muzaffar va-l-mansur Abulg‘ozzi Rahimquli Muhammad Bahodirxon..” (RD, 279b). Ta’kidlash kerakki, biror antroponom tarkibidagi Abu birligi kuniya indikatori sanalmaydi. Masalan, payg‘ambarimiz alayhissalomning kuniyalari, garchi o‘zлari yoqtirmagan bo‘lsalar ham Abulqosim (Qosimning otasi, go‘daklikda vafot etgan to‘ng‘ich o‘g‘illari Qosim ismli bo‘lganliklari uchun) bo‘lgan. Ism sifatida Abulqosimda esa abu kuniya ko‘rsatkichi sanalmaydi: “shahzoda Abulqosim valadi shahzoda Feruz...” (RD, 331b) kabi.

“Patronim – shaxsni uning avlod-ajdodlari nomini keltirish usulida atash” (E.Begmatov). Demak, patronim ota ismidan shaxsning bir necha ota bo‘g‘inini zikr etilishi bilan farqlanadi. Sharq manbalarida bu holatga ko‘p bor duch kelinadi. Masalan, “Firdasu-l-iqbol”dan: “O‘zbekxon ibn To‘g‘ruxon ibn Mangu Temurxon...” (100), “Malik Ashraf ibn amir Temurtosh ibn Amir Cho‘pon..” (101) kabi. Xuddi shuningdek, “...Abulg‘ozixon ibn Yodgorxon...” (RD, 251b). Lekin ibn hamisha patronim hosil qilmaydi. Masalan, “xoqon ibnu-l-xoqon Abul-muzaffar va-l-mansur Abulg‘ozzi Rahimquli Muhammad Bahodirxon” (RD, 355a)da ibn patronim hosil qiluvchi emas, lug‘aviy ma’nosida (xoqon o‘g‘li bo‘lgan xoqon) ishlatilgan.

Matronim esa ona (ayol)ning ismi yoki laqabidan yasalgan atoqli ot. Sharqda ona ismi bilan yasalgan atoqli otlar nihoyatda kam. Ularning eng mashhuri Iso ibn Maryamdir. Patronim

1 <https://hutba.org/slovar/k/kunya.html>



va matronim o‘z navbatida genonim – urug‘, avlod-ajdod va ular tarmoqlarining atoqli oti (E.Begmatov) bilan bog‘lanib ketadi.

Eponimlar. Eponim – mashhur shaxs(lar) nomidan yasaladigan atoqli ot (E.Begmatov). Faqat bu o‘rinda bir tushunchaga aniqlik kiritish lozim: eponim mashhur shaxs(lar) nomidan yasaladigan har qanday atoqli otmi yoki antroponomiya mikroko‘lami doirasidagi atoqli otmi? Agar bunda mashhur shaxs(lar) nomi vositasida yasalgan har qanday atoqli ot nazarda tutilsa, asarda keltirilgan Qilichboy bog‘i nomi yaxshi misol bo‘la oladi. Muarrix nomning nominatsiya tamoyilini ham o‘ta aniqlik bilan ko‘rsatib o‘tgan: “...hazrati podshohi mag‘firatpanoh shahanshohi rahmatdastgoh ulamoyi fazoyilmaob va umaroyi jalodatintisobning ham’inon va hamrikoblig‘i bila Toshhavz bog‘idin azimat ko‘guzub Bo‘zdag‘i toza bino topg‘an bog‘i behisht so‘rog‘ikim, Qilichboyga mashhurdur, ma’lum bo‘lsunkim, dargohi falaksholib mulozimlaridin Qilichniyozboy avval ul havli mazorie’ig‘a musharraf bo‘lub, ul bog‘ va rabotni bino va imorat qilib erdi, ul ravzayi marg‘ub bu jihatdin aning otig‘a mansub bo‘ldi, nuzuli bahoridin nazohati toza va tarovati beandoza bag‘ishladi”. RD, 288a) Agar mashhur nomiga bog‘liq boshqa birliklar ham eponim doirasiga mansub deb topilsa, asarda keltirilgan Taxt – qum barxani nomi buning yaqqol namunasidir. Ogahiy o‘z o‘rnida ushbu nomga izoh berib ham o‘tadi: “Va Taxt degan uch-to‘rt baland va qizil pushtadurkim, Haftregi Xorazm o‘rtasida voqe’dur. Bovujudi ul miqdor balandlik, har pushta tubidin bir gaz bo‘yi hafr qililsa, chashmayi hayvon misllik ziloli xushguvor g‘oyati uzubatda nishinon qilib, qum haroratidin tashnalik sarhadig‘a yetkanlarga serob va shodoblig‘ yetkurur. Derlarkim, ul mavze’ning bu yanglig‘ e’joznamo va taajjubafzo xosiyatig‘a sabab ul ermishkim, bir navbat hazrat Sulaymon alayhissalomning junudi noma’dud bila mururi ul regzordin tushub, o‘rduyi kayhonpo‘yni hamul mavze’g‘a tushurub va xayma ichra taxtin qurub, ul Podshohi beniyoz dargohida izhori ajzu inkisor bila ikki rakaat namoz o‘qub o‘tubdur. Ul qumg‘a bu yanglig‘ serobu sarshorlig‘ ul hazratning muborak qudumi sharofatining barkatidindur, vallohu a’lam bissavob.” (RD, 270a) Jahon tilshunosligida eponimlar masalasiga bir qadar aniqlik kiritilgan¹.

¹ Рязанцев В. Д. Имена и названия: Словарь эпонимов: имена собственные, перешедшие в названия; образование терминов и понятий; происхождение имен нарицательных; слова, употребляемые в переносном смысле. — М.: Современник, 1998.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 7-КИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.07.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000